

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspekti.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



SO'X TUMANI TOPONIMLARINING LINGVISTIK TADQIQI

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТОПОНИМОВ СОХСКОГО РАЙОНА

LINGUISTIC STUDY OF TOPONYMS IN THE SOKH DISTRICT

Mamajonov Alijon¹ ¹Farg'ona davlat universiteti Tilshunoslik kafedrası professori, filologiya fanlari **doktori**Abbozov Oxunjon Qayumjonovich²²Farg'ona davlat universiteti Tilshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada So'x tumani tabiiy iqlim sharoiti bilan bog'liq rang-barangliklar mazmunli mundarija yaratilishiga asos bo'lishi, tog'lar, suv havzasi va aholi yashash maskanlari bilan bog'liq nomlar tahlili ilm-fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirishi tadqiq etilgan. Shu bilan birga, So'x tumani milliy tarkib jihatidan ham alohida xususiyat kasb etadi. Bu hududda qadimdan, asosan, tojiklar, qisman o'zbek va qirg'izlar birga yashab keladilar. Toponimik birliklarning shakllanishida, albatta, bu jihatlarining barchasi o'z ta'sirini ko'rsatgan. Hudud toponimiyasi lisoniy belgilariga ko'ra o'rganilganda, boshqa hududlarning nomlanishida ham kuzatilgani singari milliy, madaniy, tarixiy va siyosiy munosabatlar o'z tasirini ko'rsatgan. Tuman toponimlarini lingvistik jihatdan o'rganish tilshunoslik bilan birga, boshqa bir qancha sohalarning rivojiga ham hissa qo'shadi. So'x tumani Farg'ona viloyatining alohida ijtimoiy-siyosiy-geografik ahamiyatga ega hududlaridan hisoblanadi. Shu sababli ham bu ma'muriy hududning toponimik birliklarini tadqiq etish mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy masalalari hamda tarixiy nomlarning ko'p miqdorda saqlanib qolganligi jihatidan tarixiy-etnografik xarakterga egadir.

So'x tumani aholi zich yashaydigan joylardan biri, ammo uning ma'muriy-hududiy joylashuvi murakkab tuzilishga ega bo'lib, Farg'ona viloyati uchun eksklav hudud hisoblanadi. Bu tuman toponimik birliklari haqida tadqiqotlar olib borish shu jihatdan ham muhim va dolzarbdir.

Аннотация

В статье исследуется, что разновидности, связанные с природно-климатическими условиями Сохского района, являются основой создания смыслового содержания, а анализ названий, связанных с горами, водоемами, жилыми массивами, повышает социальную значимость науки. В то же время Сохский район имеет особенность национального состава. С древних времен на этой территории совместно проживали в основном таджики, частично узбеки и кыргызы. Разумеется, все эти аспекты оказали влияние на формирование топонимических единиц. При изучении топонимии региона по языковым признакам свое влияние проявили национальные, культурные, исторические и политические связи, что наблюдается при наименовании других регионов. Лингвистическое изучение топонимов районов способствует развитию ряда других областей наряду с лингвистикой. Сохский район – один из особых социально-политико-географических районов Ферганской области. По этой причине изучение топонимических единиц данного административного района имеет историко-этнографический характер с учетом общественно-политических проблем нашей страны и того факта, что исторические названия сохранились в большом количестве.

Сохский район является одним из густонаселенных мест, но его административно-территориальное расположение имеет сложную структуру, и он является эксклавом Ферганской области. Также важно и актуально провести исследование топонимических единиц данного района.

Abstract

The article explores that varieties associated with the natural and climatic conditions of the Sokh region are the basis for the creation of semantic content, and the analysis of names associated with mountains, reservoirs, and residential areas increases the social significance of science. At the same time, the Sokh district has a peculiar national composition. Since ancient times, mainly Tajiks, partly Uzbeks and Kyrgyz, lived together in this territory. Of course, all these aspects influenced the formation of toponymic units. When studying the toponymy of a region based on linguistic characteristics, national, cultural, historical and political connections showed their influence, which is observed when naming other regions. The linguistic study of district toponyms contributes to the development of a number of other areas along with linguistics. Sokh district is one of the special socio-political and geographical regions of the Fergana region. For this reason, the study of toponymic units of this administrative region has a historical and ethnographic nature, taking

into account the socio-political problems of our country and the fact that historical names have been preserved in large numbers.

Sokh district is one of the densely populated places, but its administrative-territorial location has a complex structure, and it is an exclave of the Fergana region. It is also important and relevant to conduct a study of the toponymic units of the area.

Kalit so'zlar: *Топонимик birlik, oronim, nekronim, agionim, gidronim, oykonim.*

Ключевые слова: *Топонимическая единица, ороним, некроним, агоним, гидроним, ойконим.*

Key words: *Toponymic unit, oronym, necronym, agionim, hydronym, oikonym.*

KIRISH

So'x tumanida yashovchi aholi vakillari, o'ziga xos tabiiy iqlim sharoiti, uzoq tarixi hamda siyosiy-hududiy chegaralanishiga ko'ra, muayyan murakkablik va qiziqarli jihatlariga ega. Bu hududda 27 ta mahalla fuqarolar yig'inlari nomlari va 205 ta ko'cha nomlari, bundan tashqari, tabiiy tuzilmasiga mos ravishda 27 ta tog', qir, tepalik, chuqqi, tizma, dovon nomlari – oronimlar; 44 ta mozor, qabriston va muqaddas qadamjolar nomlari – nekronimlar; 15 ta muqaddas deb hisoblanuvchi va mashhur shaxslarning atoqli otlari bilan nomlanuvchi joylar – agionimlar, shuningdek, daryo, sohil, soy, anhor va ariq nomlari mavjud.

O'zbek tilshunosligi doirasida olib borilgan ushbu tadqiqotimizda qo'yilgan masalalar mazkur fan tarmog'ining nomshunoslik sohasi nuqtai nazaridan tahlil qilinsa-da, ish umumiy mohiyatiga ko'ra, ko'plab yondosh sohalar tarix, geografiya, etnografiya, madaniyatshunoslik va shunga o'xshash boshqa sohalar uchun ham ahamiyatga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Toponimlarni o'rganish turli sohalar bilan tutashadi. Bunda obyekt bilan bog'liq atamalar, eng birinchi navbatda, geografiya fani bilan aloqadorlik hosil qiladi. Geografiya fani olimlari toponimlarni, asosan, ajratish, farqlashga e'tibor qaratib, ularning ma'nosi, qaysi asos yoki tildan olinganligi masalasini nazardan chetda qoldiradilar. Unda, asosan, shu nom bilan belgilangan hududlar iqlimi, o'ziga xosliklari, tabiati va yilning turli fasllaridagi o'zgarishlar, tuproq, suv, resurslar va boshqa shu kabi jihatlari yoritiladi. Farg'ona vodiysi hududi toponimlarining geografik xususiyatlari o'rganilgan tadqiqot ishlari talaygina. Jumladan, geografiya fanlari doktori Y.Ahmadaliyev «Farg'ona viloyati toponimlari»[1] deb nomlangan qo'llanmasida Farg'ona viloyatida mavjud 200 dan ortiq toponimlar izohini keltirish bilan birga, toponimika fanining rivojlanish tarixi, toponimlar paydo bo'lishining geografik tamoyillari, joylarga nom berish va qayta nomlashning huquqiy asoslari haqida ham o'z mutaxassislik doirasidan kelib chiqqan holda, asosli fikrlarni beradi.

Toponimlar bevosita tarix bilan aloqadordir. Tarix fani til materiallari asosida tarixiy voqealarni ilmiy asoslaydi, o'z navbatida, til bosqichlari tarixiy voqealar bilan chambarchas bog'liq ravishda evrilishlarga uchraydi. Ayniqsa, toponimlar ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'zida yaqqol aks ettira oladigan muhim omillardan biri sanaladi. Shu ma'noda toponimika tarix fani bilan ham yaqin aloqador. O'zbekiston tarixi, xususan, Farg'ona tarixiga oid ko'plab tadqiqotlarning, deyarli, barchasida toponimlarning o'ziga xos tarzda qo'llanilishini uchratish mumkin. Chunki tarix nima, qachon, qayerda uchligi mushtarakligida tadqiqotlar olib borar ekan, qayerda so'rog'ining tahlilida toponimlarga murojaat etmaslikning iloji yo'q. Aynan Farg'ona vodiysi toponimlarini monografik tarzda tadqiq etgan tarixchi olim S.Gubayeva o'zining «Этнонимы в топонимии Ферганской долины»[2] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida etnonimlarning tarixiy manbalari, kelib chiqishi, tarqalish areali va statistik tahliliga doir muhim ma'lumotlarni taqdim etadi[3]. Bitta tadqiqot obyekti ustida olib borilgan ishlar fanning turli-tuman sohalariga aloqador bo'lishiga qaramay, o'zaro umumiy tasavvurning hosil bo'lishi va mazkur masalalar talqinida to'g'ri mulohaza yuritishga yordam beradi. Azaldan fan sohalar va tarmoqlari orasida o'zaro hamkorlik mavjud bo'lgan, bugungi kunga kelib, bunday munosabatlardagi ijobiylik yanada teranroq anglanmoqda.

Toponimlar tilshunoslikda ko'proq paradigmatic munosabatlar asosida o'rganiladi. Toponimlar lug'atini tuzish an'anasi uzoq yillardan buyon davom etib kelmoqda. Rus onomastik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishiga N.V.Podolskayaning «Словарь русской ономастической терминологии»[4] nomli ilmiy asari beqiyos hissa qo'shgan bo'lsa, E.Begmatov, N.Uluqovlar tomonidan yaratilgan «Ўзбек ономастики терминологияси» nomli ilmiy asari ham muhim hissa qo'shgan.

TILSHUNOSLIK

изоҳли луғати» o'zbek tilshunosligida muhim manba sanaladi[5]. Unda mamlakatimiz hududidagi 1680 ga yaqin onomastik terminlar izohlangan hamda tadqiqotlarning asosiy xarakterini o'zida namoyon etgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'muriy hudud nomlarini bildiruvchi toponimlar siyosiy qarashlarni o'zida namoyon etadi. Hukmron xalq yoki oqim vakillari joylarga o'z maqsadlari va g'oyalarini aks ettiruvchi nomlar qo'yish bilan ham o'z egaligini bildiradi. Toponimlar dunyoning barcha tillarida kuzatilgani kabi shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning tarixi, madaniyati, siyosati, dini va boshqa turli omillar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Shu ma'noda madaniyat va madaniyatshunoslik bilan bog'liq holda obyektlarni nomlash ko'proq oykonimlar doirasida kuzatiladi. Oykonimlar toponimlar sohasiga tegishli bo'lib, aholi yashaydigan hududlarning umumiy nomi ma'nosini anglatadi. Muayyan hududda yashovchi aholi o'z turar-joy manzillari nomini o'zgartirishga ko'proq moyil bo'ladi. Bunda ikki xil asos ko'proq rol o'ynaydi: aholida tarixga, ayniqsa, yaqin tarixda bo'lgan voqealarga nisbatan munosabatning o'zgarishi hamda siyosiy tuzumning yangilanishi. Bu ikki omil bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ularning umumiy asosi milliy-ma'naviy dunyoqarashning o'zgarishi bilan bog'liq holda umumlashadi[6]. Xususan, o'zbek tili toponimikasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, nomlarning berilishi va o'zgartirilishi, aksar hollarda, yangi davlat tuzilishi va mafkuraning singdirilishiga bo'lgan urinishlar bilan belgilanadi.

Toponimik turlar orasida oykonimlar bu masalada nisbatan faol birliklar bo'lib, ayniqsa, ma'muriy hududlar – viloyat va tuman nomlari, mahalla fuqarolar yig'ini, ko'cha va guzarlar nomi vaqtlar silsilasida ko'p o'zgarishlarga uchraydi. Sababi – yashash manzili uchun tanlangan nomlar kishilar hayoti, dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Nomlar shu hududda yashovchi aholining o'zlariga mos va xoslik ifoda etib, bu nomlarning tanlanishi ularda faxr va g'ururning yangi ko'rinishlarini hosil qilishga qodir. Aholi yashaydigan hududlardan farqli o'laroq, daryo va u bilan bog'liq irmoqlar nomi, tog' va u bilan bog'liq jarliklar, cho'qqi va tepaliklar nomi nisbatan o'zgarmas bo'ladi. Bu yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shu hududda yashovchi aholi va ularga turli ijtimoiy-siyosiy jihatdan ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan boshqa bir kuch egalarining niyatlari, rejaları bilan aloqadordir. Shu o'rinda ushbu o'zgarishlarning paydo bo'lish, vujudga kelish jihatiga ko'ra farq mavjudki, tog', tepalik, daryo, ko'l va shunga o'xshash geografik obyektlar bilan bog'liq nomlarning o'zgarishga kam uchrashi bu obyektlarning muayyan vaqt davomida o'zgarmasligi, yangi tashkil etilmaganligi, barpo etish imkoni chegaralanganligi bilan asoslansa, aholi yashaydigan hudud, tuzilma va joylar nomining nisbatan tez o'zgarishi ularni qaytadan barpo etish, ma'lum islohotlar o'tkazish yoki tubdan yangilash harakatlari bilan amalga oshiriladi.

So'x tumanining bugungi kundagi siyosiy-geografik ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, mazkur tumanning yer maydoni 220,7 km.kv.ni tashkil etadi. Chegara hududlarining umumiy uzunligi 145 km. bo'lib, tumanning markazi Rovon shaharchasidir. Bu hududda, asosan, tojiklar, shuningdek, o'zbek, qirg'iz va juda kam miqdorda boshqa millat vakillari istiqomat qiladi. Hududda toponimik birliklar shakllanishi va qo'llanilishida bu omillar muhim o'rin tutadi. Masalan, hudud toponimiyasi tarkibida *Chegarachi* va *Sarhadchi* toponimlarning mavjudligi manzilning chegara hududlari bilan tutashligini xarakterlaydi. Hududda mazkur joy nomlarining paydo bo'lishi uning bugungi kundagi joylashuvi va siyosiy maqomi bilan bog'liq.

So'x tumani uzoq yillik tarixga ega. Bu maskanda bir necha xalqlar tarixi umumlashadi, moziyning uzoq davrlariga xos bo'lgan qarashlar va tasavvurlar jonlanadi. Bu esa o'z navbatida hududdagi toponimik birliklar tuzilishida ham aks etadi.

So'x tumani toponimik birliklari tarkibida tub joy aholisi madaniyati va tarixiga hamda e'tiqodiga oid qarashlar asosida shakllangan toponimlarni uchratish mumkin. So'x vohasining tog'lar, g'or va ungurlar mavjud bo'lgan tabiiy landshafti uni odamzotning eng qadimgi davr madaniyati o'choqlari, ibtidoiy odamlarning yashash tarzi va sharoitlari bilan ham bog'laydi. Manbalarda So'x vohasida 25 ga yaqin g'or va ungurlar mavjudligi haqida ma'lumotlar berilgan. Arxeologiya sohasi vakillari, jumladan, akademik O'.Islomov o'z tadqiqotlarida So'x vohasining sharqiy qismida joylashgan Selung'ur g'ori taxminan bir yarim million yil muqaddam qadimgi odamlarning yashash manzillari bo'lganligini ta'kidlagan[7].

Keyingi davrlar, aniqrog'i, mezolit davrida ham So'xning tog'oldi va tog' hududlari hamda daryo bo'ylarida bir necha yodgorliklar arxeologlar tomonidan aniqlangan. Ular tarixiy toponimlar bo'lib, bevosita nomshunoslik masalalari bilan ham bog'lanadi. Masalan, Tul qishlog'idagi *Surati*, Devayron qishlog'idagi *Inkiri Safed*, Qal'acha, Qizilqiyuq, Oqtuproq, Hafqan qishloqlari hamda Lazar tog'i etaklaridagi toponimlar bunga misol bo'ladi. Yana bu hududdagi Mug'tepa aynan madaniyatning qadimgi shakllari bilan bog'liq toponim sifatida diqqatga sazovorki, bu yerdan ikki boshli chipor ilon tumorining topilganligi arxeologik tadqiqotlarda juda qadim davrlarda ham bu hududda muayyan aqida va qarashlar shakllanganligini ko'rsatadi.

So'x joy nomi sifatida qadimiy yodnomalarda, jumladan, zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lgan «Avesto» matnida ham uchraydi. Mazkur kitobning «Yasht» qismida bir necha viloyatlar nomlari zikr etilgan. Ularning ko'pchiligi qadimgi nomlar bo'lib, bugungi kunda bunday nom bilan ataluvchi ma'muriy hududlar mavjud emas. Ammo ular orasida «So'xi Fardafshun» birikma holidagi toponim tilga olinadiki, «*fradadafshu*» lug'aviy ma'nosiga ko'ra, «*shimoli-sharq*» degan ma'noni anglatadi. So'xlik aholining bugungi kundagi urf-odatlarini tagzaminida zardushtiylik ta'limoti uchqunlarini ko'rish mumkin. Bu asosan, insonlarning olov, suv (yomg'ir), quyosh, yer va yulduzlar bilan bog'liq udumlari va e'tiqodlarida ko'zga tashlanadi. Aytish mumkinki, bunday udumlar va ularni o'tkazish hozirgi kunda So'x tumanida boshqa hududlarga nisbatan kuchliroq saqlangan. Buni olov piri sanalgan Piri Puxta haqidagi tasavvurlar, u bilan bog'liq ravishda yonib turgan o'tin yoki olovni oyoq bilan tepmaslik, o'choq va tandir boshlarini ozoda saqlash, bu joylarda yomon ishlarni qilmaslik yoki olov qoldig'i bo'lgan kulni har yerga tashlamaslik, ayniqsa, axlat yoki chiqindilar bilan aralashtirishdan saqlanish va bunday harakatlardan yomon, xosiyatsiz ishlar sodir bo'lishi mumkinligiga ishonish haqidagi e'tiqodlar hozirgacha saqlanib qolgan. Yoki quyosh bilan bog'liq kun chiqishi, kun botishida uxlab yotmaslik, oy va yulduzlar bilan bog'liq holda idrok qilinuvchi holatlarni ko'plab kuzatish mumkin.

So'x tumani ayrim toponimlarining lug'aviy asoslari so'g'diy tiliga tegishli. Masalan, «*Zang-at*» – *toshloq yer* ma'nosini anglatgan. «*Mu-jum*» –so'zi *kanal, suv yo'li* ma'nosini, «*Baroz*» – *tepalik*, «*Lazar*» («*Lozur*») –*muzlik tog'*, «*Inkir*» – *g'or*, «*Sug'd-kent*» – *so'g'diylar yashaydigan hudud* ma'nosini anglatadi. Bundan tashqari, «*Sim-kat*» – *konli qishloq*, «*Gurbon-on*» – *qabriston kuzatuvchilari*, «*Palag'-xona*» – *o'liklar saqlanadigan joy* ma'nolarini bildiruvchi toponimlarning saqlanganligi bu hududda zardushtiylik ta'limoti joriy etilganligidan darak beradi[8].

So'x diyori va tub joy aholisi aynan tarixiy va geografik joylashuvi bilan Farg'ona vodiysida qator o'ziga xosliklarga ega. Ayniqsa, tarixiy qadamjolar va aziz-avliyolar qadami yetgan yoki ular nomi bilan bog'liq turli mo'jizalar bugungi kunda So'x tarixida ko'p kuzatiladi. Bu afsona va rivoyatlarning ko'pchiligi islom dini va uning aqidalari bilan bog'liq bo'lib, ushbu ma'lumotlarning ayrimlari tarixiy manbalarda hatto qayd etilmagan. Ulardan biri Xalifa Alining O'rta Osiyoga kelishi bilan bog'liq bo'lib, hududning tub joy aholisi qarashlari va e'tiqodining ko'p o'rinlarida u bilan bog'liq talaygina rivoyatlarni topish mumkin. So'x tumani ko'p manbalarda So'x diyori tarzida qo'llanadi. So'x diyorida *Xo'ja Murodbobo*, *Hazrati Ali*, *Xo'ja Abulqosim*, *Xo'ja Orifi Mohi Tobon*, *Sulton Mahmud G'aznaviy*, *Qulfi Zanjirkusho*, *Xo'ja Orif* kabi 30 dan ortiq mashoyixlar mozori mavjud. Bu rivoyatlar orasida Hazrati Ali va uning afsonaviy oti – Duldul nomi bilan aloqador ziyoratgoh nomi ham mavjud.

So'x tumani toponimlari tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqot obyekti sifatida, deyarli, ishlanmagan. Faqat ayrim izlanishlarda tarkibiy qismlar sifatida e'tibor qaratib o'tilganligini, bunda, asosan, mahalliy tadqiqotchilar izlanishlar olib borganligini ko'rish mumkin. Professor U.Jahonovning «So'x tarixi», O'.Sufiyevning «Qadimiy So'xdagi Dehvayron», A.Yuldoshevning «Farg'ona o'rta asr yozma manbalarida», F.Jo'rayevning «Hayot bir lahzada», H.Sufiyning «So'x tumori», M.Suyunovning «Qadimiy va navqiron So'x» nomli ilmiy hamda ilmiy-ommabop nashrlarini dalil sifatida keltirish mumkin.

So'x tumani hududidagi mavjud ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar borasida o'z qarashlarini bayon etgan O'.So'fiyev hududdagi ziyoratgohlarni o'rganib tadqiq etadi va ularni 5 ta tarkib asosida tasniflaydi. Xususan, bu tarixiy ziyoratgohlarni qadimiy diniy qarashlar

TILSHUNOSLIK

bilan bog'liq ziyoratgohlar, So'x daryosi Piri hamda buloq Pirlari bilan bog'liq ziyoratgohlar, Hazrati Ali va uning avlodlari bilan bog'liq ziyoratgohlar, Yetti Xo'jalar nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar hamda ayollar va qizlar nomi bilan bog'liq ziyoratgohlarga ajratadi. Jumladan, qadimiy diniy qarashlar bilan bog'liq ziyoratgohlarga *Sangi aro's*, *Sangi Navishta*, *Oyinai sangin*, *Oluchamazor*, *Shaxi kuro'la*, *Qulfi zanjirkusho*, *Sarg'ato (Sariq Ota)* singari toponimlar kiritilgan. So'x daryosi hamda buloq Pirlari bilan bog'liq ziyoratgoh nomlariga esa *Mazori Er-hubbi*, *Yigit Pirim*, *Havzi moron*, *Havzi kelinchak*, *Chashmai So'x* kabilarni sanab ko'rsatadi. So'x tumani tarixiy qadamjolari nomlanishida Hazrati Ali bilan bog'liq qadamjolar ko'p uchraydi. Shu sababli tasnifda Hazrati Ali nomi bilan bog'liq qadamjolar nomi alohida ajratilgan. Ularga *Mazori Hazrati Ali*, *Hazrati Xuro'son (Boboi Xurosoni)*, *Hazrati Bobo*, *Mazori Kenja vali* kabi ziyoratgoh nomlarini dalil qilish mumkin. Yana hududning ko'p sonli ziyoratgohlari islom ta'limotida keng tarqalgan yetti pirlar yoxud yetti xo'jalar turkumi bilan bog'liq: *Xo'jai Kalon*, *Xo'jai Kabo'dpo'sh*, *Xo'jai Tush*, *Xo'jai Murodbaxsh*, *Xo'jai Ro'shnoi*, *Xo'jai Xor*, *Xo'jai Abulqosim*, *Xo'jai Orifi Mohi Tobon* kabi. Ziyoratgohlar nomlanishida ayollar va qizlar nomi bilan bog'liq qadamjolarining mavjudligi madaniyat va e'tiqodda ayollar va qizlarning bevosita o'rni borligiga ishora qiladi. Masalan, So'x hududidagi *Mazori Childuxtaron*, *Oluchamazor*, *Kichirimazor*, *Tulbibi*, *Hurbibi* kabi qadamjolarini sanab o'tish mumkin. Tasnifga ko'ra, muqaddas qadamjolar nomlari tahlil etilganda, ular diniy e'tiqodni aks ettirishi bilan umumiylik belgisiga ega ekanligini ko'rish mumkin.

So'x Oloy tizmasining Qatrontog', Obishir, Lazar yonbag'irlarida joylashgan. Uning tabiiy landshaftida tog' va tog' yonbag'irlari mavjudligi bois, bu hududda tog'lar bilan aloqador toponimlarning salmog'i yuqori.

So'x tumani haqida tarixiy manbalarda ko'p ma'lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida: «Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bila Olachaxong'a shikast berib, Toshkand va Shohruhiyani olg'on mahalda, ushbu So'x bila Hushyor ko'hpoyalarig'a kelib, bir yilga yovuq tanqislik bila o'tkarib, Qobul azimati qildim[9]», deb yozadi. Bu manbada kelgan va hozirda ham qo'llanilib kelayotgan Hushyor qadimgi Ishor (oq suv)ning fonetik o'zgarishga uchragan varianti sanaladi.

Bobur Isfara va So'x xalqi haqida «Eli tamom sort va ko'hidur», ya'ni fors tilida so'zlashadigan sartlar (tojiklar) deb yozadi. Mo'g'ullar istilosi davrida So'x shahri va uning atrofida joylashgan 60 dan ortiq qishloqlar yakson qilinib, vayronaga aylantirilgan. Bu talafotlar oqibatida So'x o'zining iqtisodiy-ijtimoiy hamda savdo-sotiq borasidagi mavqeini yo'qotgan va uzoq yillar mobaynida bu nufuzini qayta tiklashga erisha olmagan. Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi barpo etilganda esa bu hudud uzoq davr mobaynida bahsli hududga aylanib turgan. Bahsli hududning Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi tomonidan talashlari esa, o'z navbatida, taraqqiyotga rahna solgan. Ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy jihatdan ko'p imkoniyatlarga ega bo'lgan bu hududni Qo'qon xonligi ham, Buxoro amirligi ham qo'ldan chiqarishni xohlamagan. Urush-talashlar esa taraqqiyotni orqaga surib kelavergan.

Chor Rossiyasi bostirib kirgan vaqtda So'x Qo'qon xonligi tasarrufida bo'lgan. Qo'qon xonligining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida uning tasarrufida bo'lgan So'x «volost» deb yuritilib, Qo'qon uyezdiga qarashli bo'lgan[10].

Chor Rossiyasi siyosiy tadbirlaridan bo'lgan «quloqlashtirish», koloxozlashtirish, Mirzacho'lni obodonlashtirish jarayonlari So'x aholisiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, XX asrning 30 – 40-yillarida Mirzacho'lni obod qilish maqsadida majburan ko'chirib keltirilgan So'xliliklar hozirgi So'xobod qishlog'ini barpo etganlar. Tojikiston Respublikasi Xo'valing va Vaxsh vohalarining ayrim hududlarida ham So'x aholisi vakillari asos solib, So'x hududida mavjud bo'lgan mahallalar nomi bilan atalgan aholi yashash maskanlarini uchratish mumkin.

Sobiq Sho'rolar davrining quloqlashtirish siyosati tufayli So'xlilik o'ziga to'q oila vakillari Afg'oniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni hududlariga qochib ketib, o'sha mamlakatlarda yashab qolishga majbur bo'lganlar.

Quloqlashtirish tadbirlari aholi tarkibi va tarqalish hududiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ayni hududda o'tkazilgan koloxozlashtirish tadbirlari aholi maskanlarining ma'muriy qayta bo'linishi va siyosiy mazmundagi yangi nomlar bilan atalishiga sabab bo'ldi. 1926-yildan

boshlangan yer-suv islohotlari 1934-yilgacha davom etdi. Boylarning yer-suvlari tortib olindi, mol-mulklari kolxozlar ixtiyoriga topshirildi. 1928 – 1929-yillarda kolxozlar tuzila boshlandi. So'xda birinchi kolxoz «Ozod» nomi bilan Tul qishlog'ida barpo etilgan. 1934-yilga kelib, hududda kolxozlar soni 22 taga yetdi. Mazkur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar So'x tumani toponimiyasi tarkibida tabiiy ravishdagi yangilanishlarga sabab bo'ldi. Barpo etilgan hududlar, kolxozlar yangi nomlar bilan ataldi; ularning aksariyati siyosiy mazmunga ega bo'lib, tuzumning g'oya va qarashlarini targ'ib etishga yo'naltirilgan edi.

1990-yilga kelib, istiqloq sharofati bilan So'x tumani alohida ma'muriy hudud sifatida ajralib chiqdi va 27-fevral sanasida So'x tumani siyosiy-ma'muriy hudud sifatida ish boshladi.

XULOSA

So'x tumani hududida joylashgan ma'muriy nomlar davr nuqtai nazaridan ko'rib chiqilib tasdiqlangan. Ammo nomlarning leksik-semantik hamda tarixiy-etimologik tahlili hudud va u yerda yashovchi odamlar haqida yanada ko'proq ma'lumot olishimizga asos bo'la oladi. Masalan, ilovadagi 1-jadvalda keltirilgan toponimlar tahlilini ko'radigan bo'lsak, unda hududdagi 18 ta shahar, shaharcha va qishloq nomlari keltirilgan. *Hushyor, Sarikanda, Tarovatti, Rovon, So'x, Tul, Qal'a, Demursad, Pidirgon, Tariq, Chashma, Malbut, Lenburg, Sheyxatola, G'aznov, Devayron, Qalacha, Qizilqiyog* kabi toponimlar So'x tumanida qishloq va shaharchalarga atab qo'yilgan nomlardir. Nomlarning aksariyati fors-tojik tilidan olingan bo'lib, ular hududda yashovchi tojik millatiga mansub kishilarning tarixi, ijtimoiy qarashlari va siyosiy madaniyati ifodasi sanaladi. Ularning lingvistik tahlili esa xalq madaniyati va tarixidan bevosita ma'lumot berish bilan birga uning tarixiy taraqqiyoti, undagi o'zgarishlar va yangilanishlarni ham o'rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмадалиев Ю. Фергона вилояти топонимлари. – Фергона: Фергона, 2009.
2. Губаева С. Этнонимы в топонимии Ферганской долины: Автореф. дис. канд. истор. наук (Ин-т этнографии АН СССР). – Москва: 1973. – 20 с.
3. Губаева С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1983; Ферганская долина. Этнические процессы на рубеже XIX-XX вв. // [http:// dnb.d-nb.de](http://dnb.d-nb.de). www.ingimage.com.
4. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии / Отв. ред. А.В. Суперанская. 2-е изд., Москва: Наука, 1988. – 192 с.
5. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006. – 103 б.
6. Адылов С.Р., Турсунов Ф.Ю. Город, рожденный дважды, М., 1970. – С. 12.
7. Исламов У. Обиширская культура. – Ташкент: Фан, 1980. – С.25.
8. Баевский С.И. Географическое название в ранних персидских толковых словарях (XI-XVвв). // Страны и народы Востока. Вып.22, - Москва, 1980.– С.28.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – В.10.
10. Васильев Д. В. К истории образования Туркестанского генерал-губернаторства (1864—1867 гг.) // [Военно-исторический журнал](#). – 2017. – № 11. – С.75-81.